


FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2024- YIL YANVAR-IYUN OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR



Farg'ona 2024- yil

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR




2024-yilning yanvar-iyun oylarida 10575,4 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 72,0 %i yoki 7616,3 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 28,0% yoki 2959,1 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2023-yildagi ulushiga nibatan 8,8 % punktga kamaydi, 6,4 %ni yoki 679,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 9896,4 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 93,6 % o'zlashtirilib, 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,8 % punktga ko'paydi.

MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 76,5 mlrd.so'm (0,7 % va 0,5 % punktiga kamaydi), Respublika budjeti 529,9 mlrd. so'm (5,0 % va 7,7 % punktga kamaydi), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 5,8 mlrd. so'm (0,05 % va 0,01 % punktga kamaydi) Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 66,8 mlrd. so'm (0,6 % va 0,7 % punktga kamaydi) asosiy kapitalga inestitsiyalar o'zlashtirildi.



MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR

2024-yilning yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1860,2 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,6 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,4 % i yoki 1098,9 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 4436,8 mlrd. so'm bilan 41,9 %ni tashkil etdi, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 519,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,9 % ini tashkil etib, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1981,4 mlrd. so'm bilan 18,7 %ni tashkil etdi.

Markazlashmagan
moliyalashtirish
manbalari tarkibi

1

Korxona va tashkilotlar mablag'i

Hajmi	1860,2 mlrd. so'm
O'sishi	94,0 %
Jamiga nisbatan	17,6 %

2

Aholi mablag'lari

Hajmi	1098,9 mlrd. so'm
O'sishi	104,0 %
Jamiga nisbatan	10,4 %

3

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

Hajmi	4436,8 mlrd. so'm
O'sishi	166,5 %
Jamiga nisbatan	41,9 %

4

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari

Hajmi	519,1 mlrd. so'm
O'sishi	102,0 %
Jamiga nisbatan	4,9 %

5

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar

Hajmi	1981,4 mlrd. so'm
O'sishi	89,1 %
Jamiga nisbatan	18,7 %


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha shahar, tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	Markazlashgan investitsiyalar, %da	Markazlashmagan manbalar, %da
Farg'ona viloyati	10575,4	6,4	93,6
Farg'ona sh.	2383,4	13,3	86,7
Qo'qon sh.	815,2	8,0	92,0
Quvasoy sh.	650,6	0,0	100,0
Marg'ilon sh.	483,3	2,5	97,5
Oltiariq	455,2	2,9	97,1
Qo'shtepa	354,1	2,1	97,9
Bag'dod	238,4	10,6	89,4
Buvayda	274,9	5,4	94,6
Beshariq	196,5	6,3	93,7
Quva	182,8	1,0	99,0
Uchko'prik	1037,2	0,7	99,3
Rishton	195,7	11,1	88,9
So'x	97,0	24,2	75,8
Toshloq	502,2	4,9	95,1
O'zbekiston	1031,9	0,6	99,4
Farg'ona t	588,2	8,6	91,4
Dang'ara	619,3	1,0	99,0
Furqat	211,2	2,2	97,8
Yozyovon	258,3	25,2	74,8



Tyulyagin.ru

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, %da




Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha yuqori ko'rsatkich xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar mablag'i investitsiyalarda kuzatilib, 2023 - yilning mos davriga nisbatan 22,7 %ga ko'paydi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida shahar, tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da	Viloyatida ulushi, %da
Farg'ona viloyati	10 575,4	106,3	100,0
Farg'ona sh.	2383,4	84,0	22,4
Qo'qon sh.	815,2	98,8	7,7
Quvasoy sh.	650,6	233,6	6,2
Marg'ilon sh.	483,3	118,9	4,6
Oltiariq	455,2	106,8	4,3
Qo'shtepa	354,1	61,0	3,3
Bag'dod	238,4	106,7	2,3
Buvayda	274,9	110,2	2,6
Beshariq	196,5	60,4	1,9
Quva	182,8	59,1	1,7
Uchko'prik	1037,2	98,2	9,8
Rishton	195,7	54,0	1,9
So'x	97,0	142,9	0,9
Toshloq	502,2	91,3	4,7
O'zbekiston	1031,9	257,0	9,8
Farg'ona t.	588,2	150,1	5,6
Dang'ara	619,3	183,5	5,9
Furqat	211,2	203,9	2,0
Yozyovon	258,3	121,0	2,4

2024- yil yanvar-iyun oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da



Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2023- yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 257,0 % bilan O'zbekiston tumani kuzatildi. Bu asosan "OU-YA XIN NENG YUAN" MChJ - Elektr energiyasi ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga amalga oshirildi.

Shuningdek, Quvasoy shahrida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 233,6 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "Fergana tex servis yurii" MChJ - bazalt, mineral jun, avtoklavlar, gaz bloklari, minora krani ishlab **chiqarishni tashkil etish hisobiga tashkil etdi.**

Yozyovon tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 121,0 %ni tashkil etgan bo'lib, bu natija "POSCO international textile" MChJ XK - tomonidan paxtachilik klasterini kengaytirish o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik va takror ishlab chiqarish tarkibi

40,5%

Mashina, uskuna, inventar

48,4%

Qurilish-montaj ishlari

11,1%

Boshqa xarajatlar

56,1 %

Yangi qurilish

31,7 %

Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya

12,2 %

Boshqa yo'nalishlar



Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 4280,5 mlrd.so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 40,5 %ini tashkil etdi. Qurilish-montaj ishlari bo'yicha 5123,0 mlrd.so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 48,4 %) va boshqa xarajatlarga 1171,9 mlrd. so'm (11,1%) o'zlashtirildi.

Shahar, tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 52,6 % yoki 428,7 mlrd. so'm bilan Farg'ona shahrida kuzatildi.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Quva tumanida kuzatilib, 78,8 % ni yoki 144,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 5929,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 56,1 % ini tashkil etdi.


Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 3353,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 31,7 % ini tashkil etdi. Qolgan 12,2 %, ya'ni 1291,8 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich O'zbekiston tumanida kuzatilib, u 90,5 % yoki 933,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shahar , tumanlar bo'yicha yangi qurilish ishlarining ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Shahar, tumanlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da




Shahar, tumanlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



Shahar, tumanlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



Shahar, tumanlar bo'yicha qurilish-montaj ishlariga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



Shahar, tumanlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, %da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 5331,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 50,4 % i o'zlashtirilgan.


Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

**KIMYO
MAHSULOTLARNI
ISHLAB CHIQARISH**
559,9 mlrd. so'm
Ulushi 5,3 %

**BOSHQA NOMETALL
MINERAL
MAHSULOTLAR
ISHLAB CHIQARISH**
874,1 mlrd. so'm
ulushi 8,3 %

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI ISHLAB
CHIQARISH**
1805,4 mlrd. so'm
ulushi 17,1 %

Viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga
investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Shahar, tumanlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Shahar va tumanlar	Jami, mlrd. so'm	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Farg'ona viloyati	6 494,6	4 436,7	76,5	1981,4
Farg'ona sh.	1 222,6	893,8	76,5	252,3
Qo'qon sh.	442,4	442,4	-	-
Quvasoy sh.	551,7	491,9	-	59,8
Marg'ilon sh.	365,7	6,3	-	359,4
Oltiariq	216,1	126,8	-	89,3
Qo'shtepa	2,3	-	-	2,3
Bag'dod	119,4	100,5	-	18,9
Buvayda	164,1	70,8	-	93,3
Beshariq	99,5	99,5	-	-
Quva	-	-	-	-
Uchko'prik	573,4	517,1	-	56,3
Rishton	117,8	100,0	-	17,8
So'x	19,5	13,6	-	5,9
Toshloq	381,5	150,1	-	231,4
O'zbekiston	940,1	866,7	-	73,4
Farg'ona t.	427,1	258,8	-	168,3
Dang'ara	553,8	147,6	-	406,2
Furqat	163,4	31,4	-	132,0
Yozyovon	134,2	119,4	-	14,8


2024- yil yanvar-iyun oylarida 6 494,6 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 61,4 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 4 436,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 2057,9 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya hisobidan joriy davrda 4 436,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 76,5 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 129,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi




IJTIMOIIY SOHA OBYEKTLARINI ISHGA TUSHIRISH

Jami turar-joylar
663,2 ming. kv.m

Yakka tartibda qurilgan
turar-joylar
663,2 ming kv.m

Namunaviy loyihalar asosida
qurilgan turar-joylar
- ming kv.m



Turar-joylarni ishga tushirish	Xonadonlar soni, birlik	Maydoni, ming kv.m
Farg'ona viloyati	2549	663,2
Farg'ona sh.	235	62,5
Qo'qon sh.	201	50,2
Quvasoy sh.	85	23,9
Marg'ilon sh.	144	29,9
Oltiariq	182	49,2
Qo'shtepa	198	61,1
Bag'dod	136	36,9
Buvayda	102	29,1
Beshariq	152	39,5
Quva	273	82,8
Uchko'prik	58	16,4
Rishton	119	18,5
So'x	20	3,9
Toshloq	207	52,1
O'zbekiston	53	11,5
Farg'ona t	173	40,9
Dang'ara	56	15,6
Furqat	60	14,3
Yozyovon	95	25,0

Farg'ona viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

Suv tarmog'i qurilishida jami 1,2 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan 26,9 %i aholi mablag'i va 73,1 %i boshqa manbalar hisobidan o'zlashtirildi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: **(73) 241-98-42**